

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIKNING AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH VA DAROMADINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Sh.Sh.Shomurodova

SamISI mustaqil izlanuvchisi

Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlikda aholi bandligini ta'minlash va daromadini oshirish bo'yicha respublikada sezilarli ishlar qilinmoqda. Aholi ish bilan bandmi, demak, ularda daromad olish va uni oshirib borish imkoniyati mavjud. Buning uchun mamlakatimizda barcha huquqiy asoslar va shart-sharoitlar yaratilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi xalqning farovonligiga qaratilgan. Buni mamlakatimiz mustaqilligining 33 yil davomida amalga oshirilgan ishlarda, 2024 yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab quvvatlash yili", deb nomlanishi munosabati bilan ishlab chiqilgan Davlat dasturida, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat mamlakat taraqqiyotining Harakatlar Strategiyasida, uni amalga oshirish borasida qabul qilingan Prezident Farmonlari va qarorlarida yanada yaqqol ko'rish mumkin. Bularning hammasi har bir insonning manfaatiga xizmat qilishga, bevosita oila xo'jaliklari va aholi farovonligining muttasil oshib borishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda Davlat budjetining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Bu aholining hayot sifati yaxshilanishiga xizmat qilmoqda⁴⁷. Bozor tashkiliy-iqtisodiy otiga o'tishning besh tamoyilidan biri sifatida kuchli ijtimoiy siyosat, boshqacha qilib aytganda, kam ta'minlangan⁴⁸ oilalarning turmush darajasini ma'lum me'yorda saqlashga qaratilgani ham bejiz emas.

Aholining turmush darajasi kishilar hayotiy faoliyatining ko'p qirralarini o'zida mujassamlashtirgan murakkab ijtimoiy-tashkiliy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, ularning hayotiy ehtiyojlarining qondirilish me'yori hisoblanadi⁴⁹. Har bir kishini qancha miqdordagi va qanday sifatdagi tovar va xizmatlarni iste'mol qilishi uning turmush darajasi sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, aholi turmush darajasi davlat ijtimoiy-tashkiliy-iqtisodiy siyosati samaradorligini baholashning eng muhim mezonidir. Aholi turmush darajasini ifodalashda bir-biriga yaqin yoki chambarchas bog'liq bir qator atamalar mavjud, ular jumlasiga turmush sharoiti, turmush sifati, turmush tarzi, turmush faoliyati xavfsizligi, mehnat faoliyati sifati, aholi farovonligi tushunchalarini kiritish mumkin.

⁴⁷ Уша манбада. 185-б.

⁴⁸ 2017 йил 12 сентябр ПҚ-3268 "Аҳолининг кам таъминланган қатламларини қўллаб-қувватлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарор.

⁴⁹ Urumbaeva Yulduz Pirnazarovna. Increasing the impact of service sector on the living standards of population in innovative economy environment <http://sersec.org/journals/index.php/IJAST/article/view/10387/5598> 2020. 05.

Tadqiqotlarimiz davomida, mazkur masalaning mohiyatini chuqurroq o'rganish shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda mustaqillik yillarida xizmatlar sohasini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirishda oila xo'jaligining rivojlanishi, uning aholi farovonligiga ta'siri, mazkur masalaning qanday ko'rsatkichlar bilan o'lchanishi, bu borada qanday natijalarga erishayotganligimiz, farovonlik tushunchasining o'zi nima, uning ta'rifi qanday izohlanadi kabi masalalar nazariy jihatdan deyarli tadqiq qilinmaganligining guvohi bo'ldik. Aholi farovonligi va u bilan bog'liq bir qancha masalalar mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda o'rganilmaganligini inobatga olib, bu borada tadqiqotlar o'tkazish bugungi kunda olimlar va mutaxassislar oldida turgan muhim vazifalar sirasiga kirishini ta'kidlamog'chimiz.

Odatda, farovonlik deganda, aholining yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarning yetarli darajada mavjudligi, insoniy ehtiyojlarning qondirilishi va shu bilan bog'liq muammolarning hal qilinishiga qaratilgan tadbirlar bilan birgalikda mamlakatimizda tinchlik va xotirjamlik ham ta'minlangan bo'lishligini taqozo qiladi. Bunday sharoitda aholining, xususan, oilalarning mahsulotlar, xizmatlar va sharoitlar bilan yetarli darajada ta'minlanishi kabi masalalarning to'liq hal qilinganligi ham oila xo'jaliklarida, ularning farovonligini belgilab beradi.

Farovonlik deganda, aholining yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar, ya'ni insoniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan mahsulotlar va xizmatlarning miqdori va sifati hamda tegishli sharoitlar yetarli darajada ta'minlanishi bilan birga aholi yashayotgan mamlakatda tinchlik va xotirjamlikning hukm surishi tushuniladi.⁵⁰

Farovonlik asosan makrotashkiliy-iqtisodiyot darajasida aniqlanadi. Bu milliy tashkiliy-iqtisodiy otimizning qay darajada rivojlanganligini o'zida ifodalaydi. Farovonlik mohiyati jihatidan tashkiliy-iqtisodiy farovonlikka va ijtimoiy farovonlikka bo'linadi. Shu ikki farovonlikning yig'indisi umumiy farovonlikni belgilaydi. Bunday ko'rsatkich hozirgi paytda inson kamoloti indeksi bilan ifodalanadi (1-rasm).



1-rasm. Aholi farovonligi va inson kamoloti indeksining o'zaro bog'liqligi

⁵⁰Pardayev M.Q., Oltayev Sh., Pardayeva O.M., Tagirova N.B. Har bir oilada tadbirkorlik – o'zini-o'zi band qilish imkoniyati. Amaliy tavsiya. Samarqand, SamISI. 2018. – 23 bet.

Aholi farovonligi deganda, oilalarning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar, ya'ni insoniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan mahsulotlar, ish va xizmatlarning miqdori va sifati hamda tegishli sharoitlar yetarli darajada ta'minlanishi bilan birga hayot kechirishining naqadar qulayligiga erishgan, uning xavfsizligini, xotirjamligini, sog'ligini, savodxonligi kabi ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan tadbirlar majmuasining mavjudligi hamda oilalar yashayotgan mamlakatda tinchlik va xotirjamlikning hukm surishi tushuniladi⁵¹. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, oilaviy farovonlik oddiy aholi farovonligiga nisbatan keng ma'noga ega ekan. Shu tufayli mazkur tushuncha o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- birinchi galda, oilaviy farovonlik oilalarning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim;

- ushbu ne'matlar insoniy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan mahsulotlar, ish va xizmatlarning miqdori va sifati hamda tegishli sharoitlar yetarli darajada ta'minlanishi bilan belgilanadi;

- bunda oilalar barqaror hayot kechirishining naqadar qulayligiga erishgan, uning xavfsizligi, xotirjamligi, sog'ligi, savodxonligi kabi ma'naviy ehtiyojlar bilan ta'minlangan bo'lishligini ham taqozo qiladi;

- pirovardida, oilalar yashayotgan mamlakatda tinchlik va xotirjamlikning ham hukm surishini o'z ichiga oladi.

Ko'rinib turibdiki, aholi farovonligi o'z ichiga juda ko'p yo'nalishlarni qamrab oladi va mos ravishda uni ta'minlash ham juda katta tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Xulosa qilib aytganda, aholi farovonligi quyidagi yo'nalishlar bilan o'lchanishini inobatga olish lozim. Birinchidan oila ehtiyojiga yetarli daraja tovar va xizmatlar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, xotirjam yashashi uchun tinchlik va osoishtalik to'liq ta'minlanganligini ham talab qiladi. Uchinchidan, insonning ma'naviy va intellektual komoloti uchun zarur bo'lgan ta'lim tizimi va boshqa intellektual salohiyatni oshiradigan omillar ham to'liq bo'lishi maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, insonlar kelgusi farovonligi uchun bugun zamin yaratishi lozimligidan kelib chiqib, bugungi iste'moldan orttirib ma'lum miqdorda zaxira qilib borishligini ham inobatga olish maqsalga muvofiqdir. Shundagina aholining, oilalarning farovonligi to'liq ta'minlanadi.

⁵¹Pardayev M.Q., Oltayev Sh., Pardayeva O.M., Tagirova N.B. Har bir oilada tadbirkorlik – o'zini-o'zi band qilish imkoniyati. Amaliy tavsiya. Samarqand, SamISI.- 24 bet.